

# FLECHA REBRENDINGI

“FLECHA TEA” XF



# MAQSADIMIZ

Flecha brendi 1995 yilda Xitoyda yaratilgan bo'lib, u yerda tezda milliy, keyin esa xalqaro brendga aylandi. O'zbekistonda u vaznli (kilogramli) va qadoqlangan choy assortimenti bilan ifodalanadi. Flecha tezda o'rta narxdagi ko'k choy segmentida etakchi o'rinni egalladi. Biroq, brendning imidji asosan choy sotuvchilari orasida "vaznli" choy sifatida shakillangan. 2021 yilda korxonada **qadoqlangan mahsulot segmentini** ishlab chiqishga va mijozlar bilan muloqot qilishga qaror qildi. Buning uchun **logotip, qadoq dizayni va mahsulot assortimentini** o'zgartirish zarurati bor edi.

**Maqsadimiz** yangi brend imidjini yaratish, ko'k choy kategoriyasini o'stirish va unda mutloq yetakchilikni qo'lga kiritish.



# MEZONLAR

- Zamonaviy dizayndagi universal korporativ identifikatsiya
- Xar bir mahsulot lineykasini bir xil dizayn hamda oddiy va tushunarli navigatsiyaga ega bo'lishi
- Logotipni avvalgi ko'rinishiga o'xshashligini saqlab qolish
- Aniq ifodalangan mahsulot assortimenti
- FLECHA mahsulotlarini choy sotuvchilari javonidagi ulkan assortimentdan ajratish uchun reklama materiallari



# G'OYA

Asosiy g'oya ko'k choy kategoriyasini vaznli va qadoqlangan choylarga ajratishdir. Shu bilan birga, har bir turdagi choyning alohida subbrendlarini bozorga chiqarishdir.

Flecha brendi qadoqlangan ko'k choy kategoriyasini ifodalaydi.

Flecha - O'zbekistonlik iste'molchi uchun tushunarli ko'rinishga ega bo'lgan yuqori sifatli Xitoy choyi.

Yangi strategiya mijozlarga hamyonbop va tushunarli mahsulot assortimentini taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, choy brendining "tushunariligi" dizayn elementlari orqali ifodalanadi. Mahsulotlarning dizayni va tavsifi, infografikasi, nomlari odamlar odatlangan, uzoq vaqt davomida ichadigan va sevib kelayotgan choy bilan assotsiatsiyani uyg'otishga qaratilgan.



# LOGOTIP

The old logo features the word "Flecha" in a bold, red, rounded font with a thick white outline and a soft orange glow. The letters are slightly slanted and have a hand-drawn, informal appearance.

## AVVALGI

Logotip effektlar bilan haddan tashqari yuklangan, vizual ko'rinishni va o'qishni qiyinlashtiradi



## HOZIRGI

Zamonaviy va yengil logotip  
Avvalgi dizaynga o'xshashlik, korporativ ranglar va shrift saqlanib qolgan  
Tashkil etilgan yil logotipning qismiga aylandi

# LOGOTIP



AVVALGI

Hech qanday tegib bo'lmaydigan, daxlsiz brend maydoni yo'q



HOZIRGI

O'qilishi oson, vizual shovqin yo'q  
Daxlsiz brend zonasi paydo bo'ldi

# QADOQLAR



AVVALGI

HOZIRGI



350g

# QADOQLAR: AVVALGI



- Vizual shovqin ko'p
- Qadoqlarda maxsus takrorlanadigan korporativ qismi yo'q
- O'zbek va xitoy stilistikasi aralashib ketgan
- Eskirgan dizayn elementlari mavjud
- Mahsulotning "tushunuvchanligi" past: choy nomini o'qish qiyin va mahsulot o'lchamida aniqlik yo'q.
- Mahsulotlar lineykasi shakillanmagan.



# QADOQLAR: HOZIRGI



YANGILIK!

**Flecha**

SINCE 1995

**TANGA**

Xitoy ko'k choyi

350g

Yangilik va qadoq foydaliligiga e'tibor

Ko'k choy uchun yashil qadoq

Brendning daxlsiz maydoni

Tanib bo'ladigan, zamonaviy logotip

Oson o'qiladigan choy nomi

Mahsulot kelib chiqish joyi

Choy barglarining allegorik tasviri

Dizayn chuqurligini yaratadigan, xitoy uslubini nozik tarzda yetkazadigan va choy lineykasini bir-biridan ajratib turadigan naqsh elementlari

Mahsulot vaznini ko'rinarli qilib belgilanishi



\* BARAKALI QADOQ  
ВЫГОДНАЯ УПАКОВКА

**Flecha**

SINCE 1995

**95**

Xitoy ko'k choyi

900g

# QADOQLAR: HOZIRGI



Minimal elementlar bilan zamonaviy dizayn

Maxsus korporativ uslub

Mahsulot nomi va vaznini o'z ichiga olgan oddiy va aniq navigatsiya

Mahsulot lineykalari orasidagi farqlar aniq ko'rinadigan yagona uslub

# ASSORTIMENT



4 asosiy yo'nalishga bo'lingan, aniq va tushunarli assortiment lineykasi:

- O'zbek xaridoriga tanish bo'lgan 95 va 110 ko'k choylari
- Ajdar, Marvarid, Zira, Tanga ko'k choyining bilimdonlari uchun ilg'or assortiment
- Qora keniya choyi
- 8810 va Jasmin yuqori sifatli ko'k choylari

РЕКЛАМА



**Flecha**  
SINCE 1995

*Хороший день  
– Хороший чай!*



FlechaTea.uz

# REKLAMA



# NATIJALAR

- FLECHA ning yangi zamonaviy, yorqin dizayni brendni ushbu segmentdagi boshqa o'yinchilardan ajratib turadi.
- Har bir qadoq xaridor bilan tushunarli belgilar tilida "gaplashadi" va assortiment ichidan tanlov qilishni osonlashtiradi.
- Kiritilgan barcha o'zgarishlar bilan brendning o'ziga xosligi va avvalgi dizaynga o'xshashligi saqlab qolingan.
- Eski assortiment 75%ga qisqartirildi va bir nechta yangi asosiy mahsulotlar qo'shildi. Ularni do'kon peshtaxtalariga joylashtirish oson va eng muhimi ular xaridorlarning asosiy ehtiyojlarini qondiradigan izchil assortimentni tashkil etdi.
- Mijozlar e'tiborini mahsulotga jalb qilish va choy tanlash jarayonini osonlashtirish uchun POSM menyusi ishlab chiqilgan.

